

ISHLAB CHIQRARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Tohirxo‘jayeva Dilafro‘z Toir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti,

Saidov Mash‘al Samadovich

ALFRAGANUS universiteti professori i.f.d.

Annotatsiya

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalar uchun innovatsion boshqaruv usullari va texnologik yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda. Maqolada boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlar ko‘rib chiqilib, ilg‘or xorijiy tajribalar ham tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish, innovatsion boshqaruv tamoyillaridan foydalanish va resurslarni samarali boshqarish kabi muhim jihatlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali boshqaruv tizimi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: boshqaruv samaradorligi, ishlab chiqarish korxonalari, innovatsion boshqaruv, raqamli texnologiyalar, mehnat unumdorligi, strategik rejalashtirish, resurslarni boshqarish, raqobatbardoshlik.

Аннотация

В современных экономических условиях возрастает значение инновационных методов управления и технологических подходов для предприятий. В статье рассматриваются теоретические и практические подходы к повышению эффективности управления, а также анализируется передовой зарубежный опыт. Освещены такие важные аспекты, как внедрение цифровых технологий, повышение производительности труда, использование принципов инновационного управления и эффективное управление ресурсами. Результаты исследования показывают, что эффективная система управления является ключевым фактором повышения конкурентоспособности предприятий и обеспечения экономического роста.

Ключевые слова: эффективность управления, производственные предприятия, инновационное управление, цифровые технологии, производительность труда, стратегическое планирование, управление ресурсами, конкурентоспособность.

Abstract

In modern economic conditions, the importance of innovative management methods and technological approaches for enterprises is increasing. The article examines theoretical and practical approaches to enhancing management efficiency and analyzes advanced foreign experiences. Key aspects such as the implementation of digital technologies, improvement of labor productivity, application of innovative

management principles, and efficient resource management are highlighted. The research results indicate that an effective management system is a crucial factor in increasing enterprise competitiveness and ensuring economic growth.

Keywords: management efficiency, manufacturing enterprises, innovative management, digital technologies, labor productivity, strategic planning, resource management, competitiveness.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faqatgina ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali emas, balki resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini tatbiq etish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish orqali muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Boshqaruv tizimining samaradorligi esa korxonaning uzoq muddatli rivojlanishi va barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Dunyo bo'ylab raqamli transformatsiya, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi yondashuvlar ishlab chiqarish jarayonlarida muhim o'rin egallamoqda. Shu bois, boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash va amaliyotga tatbiq etish korxonalar uchun muhim vazifalardan biridir.

Ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari keng tahlil qilinadi. Xususan, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanish, xodimlar malakasini oshirish va resurslarni samarali boshqarish kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan yondashuvlar tahlil qilinib, ularning mahalliy sharoitlarda tatbiq etish imkoniyatlari o'rganiladi.

Ishlab chiqarish korxonalar iqtisodiyotning asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib, ularning samarali boshqarilishi milliy iqtisodiyot rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Raqobat muhitining keskinlashuvi, texnologik innovatsiyalar va globallashtirish jarayonlari korxonalarini boshqaruv tizimini takomillashtirishga undaydi.

Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida korxonalar nafaqat mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki sifatni yaxshilash, xarajatlarni optimallashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik barqarorligini ta'minlash yo'llarini ham izlashga majburdir. Buning uchun esa zamonaviy boshqaruv usullaridan samarali foydalanish talab etiladi. Shu sababli, boshqaruv samaradorligini oshirish yo'nalishlari nafaqat korxonada ichidagi jarayonlarni takomillashtirishga, balki uning umumiy iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda sanoat korxonalarida ekologik barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish va yashil texnologiyalardan foydalanish nafaqat ijtimoiy mas'uliyat, balki iqtisodiy foyda ham keltirishi mumkin. Shu bois, ekologik boshqaruv tizimlarini rivojlantirish ham dolzarb masalalardan biri sifatida ko'rib chiqilmoqda.

Shuningdek, xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini oshirish uchun korxonalar samarali boshqaruv tizimlarini joriy etishlari lozim. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ko'rinib turibdiki, innovatsion boshqaruv tizimlari va texnologik yangiliklardan

foydalanish korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish usullarini aniqlash va tatbiq etish bugungi kunda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qator farmon va qarorlar ham ishlab chiqarish korxonalarining samarali boshqaruvini ta'minlashga qaratilgan. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-martdagi PQ-168-son qarori"[1]da sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu hujjatlar asosida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Shu sababli, zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash, mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish orqali korxonalar barqaror rivojlanishi va xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, "O'zbekiston Respublikasi sanoat salohiyatini rivojlantirish strategiyasi" va "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi[2] doirasida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va samarali boshqaruv tizimlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, ekologik barqarorlik tamoyillarini inobatga olgan holda ishlab chiqarishni rivojlantirish kelgusida korxonalarining ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Boshqaruv samaradorligini oshirishga doir ilmiy tadqiqotlar va nazariy yondashuvlar ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Ularning fikrlariga ko'ra, boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy omillari strategik rejalashtirish, innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarni qo'llash va resurslardan samarali foydalanishdir. Bugungi kunga qadar turli nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida boshqaruv samaradorligini oshirishga oid yondashuvlar keng muhokama qilinib kelinmoqda.

Xalqaro tadqiqotlar tahliliga yuzlaniladigan bo'lsa, Peter Drucker boshqaruv samaradorligi konsepsiyasini ilgari surib, muvaffaqiyatli boshqaruvning asosiy omillaridan biri sifatida strategik rejalashtirish va samarali kommunikatsiyani belgilaydi[3]. Uning fikriga ko'ra, tashkilotda resurslardan oqilona foydalanish, aniq belgilangan maqsadlar va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining qo'llanilishi korxonalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Rossiyalik olim Igor Ansoff strategik boshqaruvning ahamiyatini tahlil qilib, har bir korxonalar o'zining tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini oshirishi kerakligini ta'kidlaydi[4]. Unga ko'ra, uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun korxonalarining innovatsiyalar va bozor talablari bilan uyg'unlashishi zarur. Igor Ansoffning strategik boshqaruv modeli bugungi kunda ko'plab ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilib, ularga samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda.

Li Zhang o'zining "Smart Manufacturing and Management" tadqiqotida ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirishning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini tahlil qiladi[5]. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalarni

qo'llash ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi, ishlab chiqarish tezligini oshiradi va inson resurslaridan samarali foydalanishga imkon yaratadi. Xitoy sanoatining tez rivojlanishi aynan ushbu yondashuvga asoslangan bo'lib, O'zbekiston sanoati uchun ham bunday tajriba muhim ahamiyatga ega.

Samarali boshqaruvning asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan va boshqaruv ilmiga ulkan hissa qo'shgan olimlardan biri Henri Fayoldir. Uning fikriga ko'ra, korxonalarda boshqaruv jarayonlari rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik, muvofiqlashtirish va nazorat qilish kabi asosiy funksiyalar orqali amalga oshirilishi kerak[6]. Fayolning ushbu boshqaruv tamoyillari korxonalarda samarali boshqaruv tizimlarini yaratish, resurslarni samarali boshqarish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Uning metodologiyasi hozirgi kunda ko'plab sanoat korxonalarida qo'llaniladi va samaradorlikni oshirishda yordam beradi. Shuningdek, uning boshqaruv tizimini tizimli tarzda ishlab chiqishdagi fikrlarini O'zbekiston sanoat korxonalarida ham qo'llash mumkin. Ayniqsa, tashkilotlar o'rtasidagi samarali kommunikatsiya, resurslarni oqilona taqsimlash va samarali rahbarlikni ta'minlash masalalari O'zbekistonning sanoat sohasidagi islohotlarida muhim o'rin tutmoqda. Fayolning tamoyillari, ayniqsa, raqamli texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishda qo'llanilishi zarur. Bu yondashuv O'zbekiston sanoatining rivojlanishiga va korxonalarda yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

Sifat menejmenti sohasida taniqli mutaxassislardan biri Kaoru Ishikava esa sifat menejmenti tamoyillariga urg'u berib, ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirish uchun uzluksiz yaxshilash (kaizen) tizimidan foydalanish lozimligini ta'kidlaydi[7]. Ishikavaning sifat tahlili va nazorat bo'yicha ishlari bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy tadqiqotlarga yuzlanadigan bo'lsak, Sh. A'zamov sanoatni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va tizimlarni joriy etishning ahamiyatini tahlil qiladi. U raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirishning boshqaruv samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi[8]. Uning fikricha, raqamli transformatsiya korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishga, mehnat unumdorligini oshirishga va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv ayniqsa "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning tadqiqotlari O'zbekiston sanoatining raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga o'tgani va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

A. Jabborov o'z tadqiqotlarida sanoat korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishda tashkilot strukturasi samarali dizayni va boshqaruv tizimlarining integratsiyasi muhimligini ko'rsatadi[9]. Unga ko'ra, boshqaruv tizimlarini optimallashtirish, resurslarni samarali boshqarish va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali korxonalarining umumiy samaradorligi oshadi. Jabborovning fikriga ko'ra, boshqaruv tizimlarining muvofiqlashtirilgan integratsiyasi korxonalarining barcha resurslaridan maksimal darajada foydalanishga imkon yaratadi.

Xalqaro va milliy adabiyotlar tahlili orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning turli jihatlarini, xususan boshqaruv samaradorligini ta'minlashda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish, strategik boshqaruv va resurslarni samarali taqsimlashning ahamiyati katta ekanligini ko'rish mumkin. Innovatsion texnologiyalar, raqamli transformatsiya va strategik boshqaruv tamoyillarini joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Fayolning boshqaruv tamoyillari va boshqa olimlarning yondashuvlari o'zaro uyg'unlashgan holda, O'zbekiston sanoat korxonalarini uchun ham amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, O'zbekiston Prezidentining ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlari, raqamli transformatsiya va texnologiyalarni keng joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, mamlakatimizda boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar va innovatsion yondashuvlarni qo'llashning ahamiyati katta. Bunday yondashuvlar nafaqat sanoat korxonalarida, balki barcha sohalarda boshqaruvni takomillashtirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

METODOLOGIYA

Ushbu ilmiy maqolada ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy tahlil qilish va ishlab chiqarish jarayonida qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish, iqtisodiy taqqoslash, mantiqiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshqaruv samaradorligini oshirish masalasini korxonada darajasida tahlil qilganda, qo'llanilayotgan boshqaruv yondashuvlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalarda samaradorlik darajasi bevosita rahbariyat tomonidan tanlanayotgan yondashuvga bog'liq bo'ladi. Turli yondashuvlar har xil sharoitlarda har xil natijalarni beradi va bu ularning afzallik hamda cheklavlari bilan bog'liq. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqarish korxonalarida keng tarqalgan funksional yondashuv, ayniqsa ommaviy ishlab chiqarish davrida samarali bo'lib, tashkilot faoliyatini aniq funksiyalarga ajratib boshqarishga imkon bergan. Bunday yondashuv o'zining tartib-intizom, mutaxassislikni chuqurlashtirish kabi afzalliklariga ega bo'lsa-da, hozirgi beqaror va tez o'zgaruvchan muhitda bir qator muammolarga olib kelmoqda. Jumladan, funksiyalar o'rtasidagi integratsiya pastligi, byurokratiya darajasining oshishi, tezkor qaror qabul qilishdagi sustlik va natijaviylikka yo'naltirilmaslik bu yondashuvning asosiy kamchiliklari sifatida e'tirof etildi.

Shu bilan birga, jarayonli yondashuvning afzalliklari ishlab chiqarish korxonalarining zamonaviy talablariga mos kelishini ko'rsatmoqda. U tashkilotni o'zaro bog'liq jarayonlar tizimi sifatida ko'rib, har bir jarayon uchun mas'uliyatni aniq belgilaydi, natijaga yo'naltirilgan boshqaruvni shakllantiradi. Bu esa, rahbariyatni haddan ziyod yukdan xalos qilish, qarorlarni tez va moslashuvchan qabul qilish imkonini beradi. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlarida shiddatli raqobat, resurslar

tanqisligi va mijoz talablari tez o'zgarib turadigan sharoitda, bu yondashuvning ustunligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Tizimli va situatsion yondashuvlar esa, muayyan holatlarda qo'llash uchun mos keladi va ko'proq tahliliy hamda kontekstual qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Biroq ularning asosiy kamchiligi — murakkablik va barqaror boshqaruv tizimini yaratishdagi qiyinchiliklardir.

O'rganilgan korxonalar misolida, boshqaruv samaradorligini oshirish uchun quyidagi yondashuvlar samarali ekani aniqlandi:

- Funksional yondashuv asosida strukturani saqlagan holda, jarayonli yondashuv elementlarini integratsiyalash;
- Boshqaruv vositalarini jarayonlar asosida qayta yo'naltirish;
- Har bir jarayon uchun aniq maqsad, mezon va javobgarlarni belgilash;
- Yondashuvlar o'rtasida moslashuvchanlikni saqlagan holda, vaziyatga qarab boshqaruv strategiyasini o'zgartirish (1-jadval).

1-jadval

Turli boshqaruv yondashuvlarining afzallik va kamchiliklari¹

Boshqaruv yondashuvi	Afzalliklari	Kamchiliklari
Funksional yondashuv	Tartib-intizom, mutaxassislikni chuqurlashtirish	Integratsiya pastligi, byurokratiya ko'pligi
Jarayonli yondashuv	Jarayonlararo bog'liqlik, natijaga yo'naltirish	Resurs va vaqt talabchanligi
Tizimli yondashuv	Kompleks yondashuv, tizim sifatida boshqarish	Amalga oshirish murakkabligi
Situatsion yondashuv	Moslashuvchanlik, kontekstual qaror qabul qilish	Barqaror boshqaruv tizimini yaratish qiyinligi

Yuqoridagi tahlil natijalariga asoslanib aytish mumkin, ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishda faqat bitta yondashuvga tayanish yetarli emas. Aksincha, turli yondashuvlarning moslashuvchan uyg'unligi, ayniqsa jarayonli yondashuvning funksional tizimlarga integratsiyasi eng optimal yechim sifatida ko'rilmogda. Jadvaldan ko'rinib turibdiki:


Funksional yondashuv ko'proq ishlab chiqarish jarayonlarini qat'iy tartibga solish, mehnat taqsimoti va mutaxassislikni chuqurlashtirish orqali samaradorlikka erishishga yo'naltirilgan. Uning afzalligi shundaki, har bir xodim o'z vazifasini aniq biladi va bu ularning malakasini oshirish imkonini beradi. Lekin funksiyalar o'rtasidagi bog'liqlikning pastligi, byurokratik to'siqlar va tezkor qaror qabul qilishdagi muammolar ushbu yondashuvning zaif tomonlaridan hisoblanadi.

¹ Muallif ishlanmasi

Jarayonli yondashuv esa zamonaviy menejmentning asosiy talablariga mos tushadi. Chunki unda tashkilot yagona jarayonlar majmui sifatida boshqariladi. Har bir jarayon uchun javobgarlar belgilanishi va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvning shakllanishi rahbariyatning boshqaruv yukini yengillashtiradi. Biroq, bu yondashuvni joriy etish uchun muayyan resurslar, vaqt va texnologik imkoniyatlar talab qilinadi.

Tizimli va situatsion yondashuvlar esa asosan murakkab va o‘zgaruvchan muhitda qaror qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bu yondashuvlarni to‘liq amalga oshirishda murakkablik, katta tahliliy ishlar va boshqaruv tizimining barqarorligini ta‘minlash muammosi mavjud.

Quyidagi diagrammada ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligiga ta‘sir etayotgan boshqaruv yondashuvlarining ulushi foiz ko‘rinishida aks ettirilgan. Grafik natijalari o‘rganilgan korxonalar tajribasi va respondentlar fikri asosida shakllantirilgan (1-rasm).



1-rasm. Boshqaruv samaradorligiga ta‘sir etuvchi yondashuvlarning ulushi (%)¹

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, hozirgi vaqtda ishlab chiqarish korxonalarida eng ko‘p qo‘llanilayotgan boshqaruv yondashuvi bu — jarayonli yondashuv (40 %). Bu esa korxonalarda boshqaruv jarayonlarini natijaga yo‘naltirish, jarayonlar uchun javobgarlikni kuchaytirish va moslashuvchan boshqaruv tizimlarini shakllantirishga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ikkinchi o‘rinda funksional yondashuv (35 %) joy olgan. Bu yondashuv hali ham ko‘plab an‘anaviy ishlab chiqarish korxonalarida qo‘llanilib kelmoqda, ayniqsa yirik va barqaror tizimli ishlab chiqarish faoliyatida.

Tizimli yondashuv (15 %) va situatsion yondashuv (10 %) esa muayyan korxonalarda aniq vaziyatlarga moslashtirilgan holda, qo‘shimcha sifatida

¹ Muallif ishlanmasi

qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi. Ularning ulushi nisbatan past bo‘lsa-da, ma‘lum sohalarda va o‘ziga xos sharoitlarda samarali natija berishi mumkin.

Quyidagi tavsiyaviy jadval boshqaruv samaradorligini oshirish jarayonida qo‘llanilishi lozim bo‘lgan asosiy yondashuvlarni va ularning amaliyotda qo‘llanish bo‘yicha tavsiyalarini aks ettiradi (2-jadval).

2-jadval

Korxonada darajasida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun yondashuvlar bo‘yicha tavsiyalar¹

№	Boshqaruv yondashuvi	Tavsiya mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Funksional yondashuv	Strukturani saqlagan holda har bir bo‘lim faoliyatini optimallashtirish va aniq vakolatlarni belgilash	Boshqaruv tartibi va intizomi mustahkamlanadi
2	Jarayonli yondashuv	Jarayonlararo integratsiyani kuchaytirish, har bir jarayon uchun maqsad va mezonlarni belgilash	Natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv shakllanadi, samaradorlik oshadi
3	Tizimli yondashuv	Korxonada ichki va tashqi muhitini kompleks tahlil qilish, tizim elementlari o‘zaro bog‘liqligini hisobga olish	Resurslardan samarali foydalanish, xavflarni boshqarish imkoniyati yaratiladi
4	Situatsion yondashuv	O‘zgaruvchan muhit sharoitida moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarini qo‘llash	Tezkor va moslashuvchan qaror qabul qilish imkoniyati kengayadi

Funksional yondashuv — ayniqsa an‘anaviy ishlab chiqarish korxonalarida o‘zining foydaliligini saqlab qolmoqda. Ushbu yondashuv asosida tuzilgan tashkilot strukturasi to‘g‘ri boshqarish va vakolatlarni aniq belgilash orqali intizom va boshqaruv tartibi kuchayadi. Biroq, uni hozirgi zamon talablariga moslashtirish uchun jarayonli elementlar bilan boyitish muhim.

Jarayonli yondashuv — bugungi sharoitda eng samarali yondashuvlardan biri sifatida tan olinmoqda. Sababi, korxonadagi barcha faoliyatlar natijaga yo‘naltirilgan holda jarayon sifatida boshqariladi. Jarayonlararo aloqani kuchaytirish va mas‘uliyatni aniq belgilash orqali korxonada ichki boshqaruv sezilarli darajada yaxshilanadi.

Tizimli yondashuv — bu yondashuv korxonada muammolarini tahlil qilishda va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. U korxonada ichki va tashqi muhitning o‘zaro ta‘sirini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Situatsion yondashuv — ayniqsa o‘zgaruvchan tashqi muhit, raqobat muhitining kuchayishi va yangi xavf-xatarlar paydo bo‘lishi sharoitida eng moslashuvchan

¹ Muallif ishlanmasi

yondashuv sifatida qoʻllaniladi. U boshqaruv strategiyasini vaziyatga mos ravishda oʻzgartirib turishga imkon yaratadi.

Amaliyotda boshqaruv samaradorligini oshirish uchun biror bir yondashuvni alohida qoʻllashdan koʻra, ularning oʻzaro integratsiyasi samaradorlikni yanada oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarida funksional yondashuv asosida struktura saqlanib qolgan holda, jarayonli yondashuv orqali natijaga yoʻnaltirilgan boshqaruvni shakllantirish, tizimli va situatsion yondashuvlar bilan esa strategik va operativ qarorlarni qoʻllab-quvvatlash eng maqbul yechim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish bugungi iqtisodiy sharoitda nafaqat korxonalarining ichki rivojlanishi, balki butun mamlakat iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini taʼminlashda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, samarali boshqaruv tizimi ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi, resurslardan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish va raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishda muhim rol oʻynaydi.

Ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy yoʻnalishlari sifatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli transformatsiya, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini qoʻllash, strategik rejalashtirish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikka erishish masalalari batafsil yoritildi.

Xususan, jarayonli yondashuvning afzalliklari amaliyotda oʻz tasdigʻini topmoqda. Ushbu yondashuv yordamida korxonada barcha boshqaruv jarayonlari natijaga yoʻnaltirilgan tarzda tashkil etiladi, masʼuliyat zonalari aniq belgilanadi, bu esa tezkor va sifatli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Bunda funksional yondashuv elementlarini saqlab qolgan holda, jarayonli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali korxonada faoliyatining izchilligini taʼminlash mumkin.

Bundan tashqari, maqolada tahlil qilingan xorijiy va milliy tajribalar shuni koʻrsatadiki, boshqaruv samaradorligini oshirishda strategik boshqaruv tamoyillari, sifat menejmenti, texnologik yangilanishlar va xodimlar malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan qator strategik dasturlar va farmonlar, jumladan "Raqamli Oʻzbekiston – 2030" dasturi sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishda muhim normativ-huquqiy asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi muhim xulosalarni ajratish mumkin:

- Ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun turli boshqaruv yondashuvlarini moslashuvchan ravishda integratsiyalash muhimdir;
- Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish vositalaridan keng foydalanish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish mumkin;
- Xodimlarning bilim va koʻnikmalarini doimiy ravishda oshirish, motivatsiya tizimini takomillashtirish samaradorlikka ijobiy taʼsir koʻrsatadi;

- Energiya tejamkorlik va ekologik barqarorlik tamoyillariga amal qilish korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish masalasi kompleks yondashuv va uzluksiz takomillashtirish jarayonini talab etadi. Kelgusida bu boradagi ilmiy izlanishlarni davom ettirish, innovatsion boshqaruv modellarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga keng tatbiq etish zarur. Bu esa, nafaqat sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, balki mamlakatimizning xalqaro bozordagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-mart PQ-168-son qarori "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-5918980>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son "Raqqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. to'risidagi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6600413>

3. Drucker, P. (1974). Management: Tasks, Responsibilities, Practices. New York: Harper & Row.

4. Ansoff, I. (1987). Corporate Strategy. New York: McGraw-Hill Book Company.

5. Li Zhang. (2020). Smart Manufacturing and Management. Springer Nature.

6. Fayol, A. (1949). General and Industrial Management. London: Pitman Publishing.

7. Ishikawa, K. (1985). What is Total Quality Control? The Japanese Way. Prentice Hall.

8. A'zamov Sh.A. (2021). Innovatsion menejment asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.

9. Jabborov A. (2022). Korxonalar boshqaruvi va innovatsion strategiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**